

MULGON JAMOASI G'OLIB



MULGON JAMOASI G'OLIB

Tumanimizda sportni rivojlantirish, ayniqsa, bu sohaga yoshlarni, uyushmagan yoshlarni jalb etish maqsadida turli musobaqa va tadbirlar tashkil etib, o'tkazilmoqda. Tumanimizning Mulgon mahallasidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida uyushmagan yoshlar o'rtasida futbol bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.

Mazkur musobaqalarda mahallalardan qatnashgan yosh futbolchilar davlat xavfsizligi xizmati viloyat boshqarmasi boshlig'i kubogini qo'lga kiritish uchun maydonga tushdilar. Murosasiz kechgan bahslarda g'olib va sovrindorlar nomi ham aniqlandi.

Musobaqalar oxirida g'olib jamoa va eng yaxshi futbolchilarga tashkilotchilarning sovg'alari topshirildi. Shuningdek, musobaqa sovrindorlariga tuman "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan qimmatbaho va esdalik sovg'alar taqdim etildi.

Musobaqlarda Mulgon jamoasi faxrli 1-o'rinni egalladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-19 16:34:55